# SHARTNOMA № 82

Mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan

Farg'ona shahri " 01 " fevral 2022 yil

**MChJ QK "MATXALIKOV ABDUNABI FAYZI"** ("GRAND FERGANA HOTEL" mehmonxona majmuasi, bundan keyin "Pudratchi" (Ijrochi) deb nomlanadi, Ustav asosida ishlovchi, bosh direktor A.A. Matxalikovning timsolida bir tomondan va Farmoyish asosida harakat qiluvchi **Farg'ona viloyat turizm va sport boshqarmasi**, bundan keyin "Buyurtmachi" (Mijoz) deb yuritiladi hamda buyurtma asosida harakat qiluvchi boshqa tomondan, ushbu shartnomani quyidagi shartlar asosida tuzdilar:

## 1. BITIMNING MAVZUSI

1.1. Pudratchi Buyrtmachi ishchilarini «GRAND FERGANA HOTEL» mehmonhonasida ushbu shartnomani 1.2 – bandda ko'rsatilgan hajmlarda va narxlarda qabul qilish va joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi. Mijoz ushbu xizmatlarni qabul qilish va ularni narxini to`lashni o`z zimmasiga oladi.
1.2. Ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va narxi:

| № | Xizmatlar nomi | O`lch.bir | Miqdori | Narxi | Qiymati | QQS | | Jami qiymati |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | 15 % | summa | |
| 1 | Mehmonxona xizmati | 60 nafar | 9 kun | 165 539,45 | 89 391 304,35 | 15% | 13 408 695.65 | 102 800 000 |
| Jami Bir yuz ikki million sakkiz yuz ming so'm | | | | | | | | |

## 2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Pudratchi quyidagi huquqlarga ega:
2.1.1. mijozdan ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar narxini to'lashni talab qilishi.
2.2. Pudratchi majbur:
2.2.1. ga muvofiq, ushbu shartnoma shartlari asosida va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida o`zvaqtida vasifatli xizmat ko`rsatish;
2.2.2. mehmonxonaga kelgan mijozning xodimini belgilangan yashash tartibi, yong'in xavfsizligi qoidalari, xizmatlar narxiga kiritilgan xizmatlar ro'yxati bilan tanishtirish, shuningdek mehmonxonada qolish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni taqdim etish;
2.2.3. xizmatlar ko'rsatish sifatiga ta'sir ko'rsatadigan kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Pudratchi Buyurtmachi tegishli so'rov yuborgan paytdan boshlab 1 soat ichida bu kamchiliklarni bartaraf etishi shart.
2.3. Buyrtmachi (Mijoz) huquqlarga ega:
2.3.1. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq pudratchidan o'z vaqtida va sifatli xizmat ko'rsatishni talab qilishi;
2.3.2.Mijoz bilan kelishmasdan turib pudratchi tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar narxini to'lamaslik.
2.4. Buyrtmachi (Mijoz) majbur:
2.4.1. ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar narxini to'lash;
2.4.2. Pudratchi tomonidan belgilangan yashash tartibiga va yong`in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlash.

## 3. XIZMATLAR NARXI VA TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning umumiy qiymati **102 800 000** (Bir yuz ikki million sakkiz yuz ming so'm) summa QQS bilan.
3.2. To'lov shakli –naqd pulsiz (bank o'tkazmasi).
3.3. Buyrtmachi (mijoz) ushbu shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'n besh bank kuni ichida 30% (o'ttiz foiz) miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi. Buyurtmachi qolgan miqdorni xizmatlar ko'rsatilishi va tegishli akt rasmiylashtirilganidan keyin o'n besh bank kuni ichida Pudratchiga to'laydi.

## 4. KAFOLAT

4.1. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu shartnoma imzolangan sanada va uning amal qilish muddati mobaynida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq harakat qiladigan, to'g'ri ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs ekanligini kafolatlaydi.
ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlarni to'liq va sifatli ko'rsatish uchun barcha zarur ruxsatnomalar va litsenziyalarga ega.
Agar ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarning bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar bo'lsa, Pudratchi bu haqda mijozni darhol xabardor qilishi shart.
bu mijoz haqida.

## 5. TARAFLARNING MAS'ULIYATI

5.1. Tomonlar o'z vazifalarini bajarmaganliklari yoki shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaslikt uchun "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnoma -huquqiy asoslari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq javobgar bo`ladilar.
5.2. Jarimalarni to'lash tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

## 6. NIZOLARNI HAL ETISH

6.1. Ushbu shartnomani bajarilish davrida kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar shartnoma, tomonlarni muzokaralar o`tkazish yo'li bilan hal qiladilar va agar tomonlar kelishuvga erisha olmasalar, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi.
6.2. Ushbu shartnomada belgilanmagan hollarda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida xarakat qiladilar.

## 7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar bu holat shartnoma tuzilganidan keyin sodir bo`lgan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan (fors-malor) holatlar, yani oldindan ko'rabilish va oldini olosh imkoni bo`lmagan favqulodda hodisalar natijasida yuzaga kelgan bo`lsa. G'ayritabiiy tabiat hodisalariga quyidagilar kiradi: suvtoshqini, yong'in, zilzila, portlash, bo'ron, tuproqning pasayishi, epidemiyalar va boshqa tabiyat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar, ishtashlashlar. Shuningdek sohada yoki mintaqada, davlat hokimiyati yoki boshqaruvi tomonidan ushbu shartnomani bajarish imkonsizligiga olib keladigan qaror qabul qilinishi. Ushbu shartlar yuzaga kelgan va tugatilganidan so'ng, o'z majburiyatlarini bajarish imkonsizligi yuzaga kelgan ushbu shartnoma bo'yicha tomon, vakolatli davlat organining tegishli guvohnomasini ilova qilib, bu haqda boshqa tomonga zudlik bilan xabar berishi shart. O'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, tomon boshqa tomonga xabar bermaslik yoki o'z vaqtida xabar bermaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashi shart.
7.2. Fors -major holatlarining boshlanishi, ularning amal qilish muddati uchun shartnoma muddatini uzaytirilishiga olib keladi.

## 8. MAHFIYAT

8.1. Tomonlar uchun Shartnomaning barcha shartlari sir saqlanishi lozim bo`lgan ma`lumotlar hisoblanadi.
8.2. Tomonlarning har biri ushbu shartnoma bo'yicha ma'lumotlarni ikkinchi tomonning yozma roziligi siz uchinchi shaxslarga berishga haqli emas.

## 9. Yakuniy qoidalar

9.1. Bu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan o`zbek tilida ikki nusxada tuzilgan.
9.2. Ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tishi bilan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.
9.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar har ikki tomonni vakolatli vakillari tomonidan imzolangan qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtirilishi kerak.

## 10. YURIDIK MANZILLAR, BANK REKVIZITLARI VA TARAFLARNING IMZOLARI

"Ijrochi" (PUDRATCHI)

Manzil: Farg'ona, 150100,
Yangi Turon ko`chasi 15-uy
tel.: 78 229 75 55,78 229 77 90
X/r 20214000900706808001
ATB "Asakabank" Farg'ona
MFO 00539
INN 304532102
OKONX 91620, OKED 55100

Gen. Direktor
"MATXALIKOV ABDUNABI FAYZI" MCHJ

A.A. Matxalikov ____________

**"Buyurtmachi" (Mijoz)**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI,
FARG'ONA VILOYATI BOSH BOSHQARMASI
150100,Farg'ona shahar,Alisher Navoiy ko'chasi 17-uy
Sh.x/r:
INN:207249747 OKONX: ________ Tel:(73)244-44-54
O'zbekiston Respublikasi. Moliya vazirligi G'aznachiligi
x/r:23402000300100001010
Markaziy bank,Toshkent sh. XKKM
MFO:00014 INN:201 122 919

A. Madaminov

# 1 -ILOVA

2022 yil "01" февраля kungi 82 / 2022 -sonli shartnomaga
(Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va shartnomasiz haqiqiy emas)
Tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha mijozlarga ko'rsatiladigan mehmonxona xizmati uchun quyidagi to'lov miqdori belgilanadi.

**MEHMONXONA MAJMUASIDA YASHASH UCHUN TARIFLAR**
**"GRAND FERGANA HOTEL"**
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOREZIDENTLARI UCHUN.**

| Xona toifasi | Shartnoma imzolangan kundan boshlab 31.12.2022yilgacha bo'lgan davr uchun | |
|---|---|---|
| | Bir kishilik (SGL) | Ikki kishilik (DBL, TWN) |
| **Standart xona** | 190 370,37 so'm | 380 740.74 so'm |
| **Deluks** | 600 000 so'm | 850 000 so'm |
| **Lyuks** | 1 000 000 so'm | 1 200 000 so'm |

**Eslatma:**
1.1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.03.2017 yildagi 137 -sonli qaroriga muvofiq, O`zbekistonga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslardan undiriladigan turizm solig`i eng kam oylik ish haqqining 15% (foizini) tashkil etadi va yuqoridagi tariflarga kiritilgan.
1.2. Narxga nonushta (bufet) kiradi. Nonushta vaqti - 07.00 dan 10.00 gacha.
1.3. Narxlar tijorat siri bo'lib, "Pudratchi" ning ruxsatisiz ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi mumkin emas.
1.4. Barcha o'zgarishlar taklif qilingan o'zgartirishdan kamida 10 kun oldin yozma ravishda berilgan bildirishnoma asosida amalga oshirilishi lozim.

**"Ijrochi" (PUDRATCHI)**

Manzil: Farg'ona, 150100,
Yangi Turon ko`chasi 15-uy
tel.: 78 229 75 55, 78 229 77 90
X/r: 20214000900706808001
ATB "Asakabank" Farg'ona
MFO 00539
INN 304532102
OKONX 91620, OKED 55100

Gen. Direktor
"MATXALIKOV ABDUNABI FAYZALIMICHJ

A.A. Matxalikov

**"Buyurtmachi" (Mijoz)**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI,
FARG'ONA VILOYATI BOSH BOSHQARMASI
INN:207249747 OKONX: 84112 Tel:(73)244-44-54
O'zbekiston Respublikasi. Moliya vazirligi G'aznachiligi
Markaziy bank Toshkent sh. 
MFO:00014

## 2 -ILOVA

2022 yil "01" февраля kungi 82 / 2022 -sonli shartnomaga
(Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va shartnomasiz haqiqiy emas)

Tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha mijozlarga ko'rsatiladigan mehmonxona xizmati uchun quyidagito'lov miqdori belgilanadi.
Mehmonxona majmuasida yashash uchun tariflar

**" GRAND FERGANA HOTEL"**
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI REZIDENTLARI UCHUN**

| Xona toifasi | Xona toifasi Shartnoma imzolangan kundan boshlab 31.12.2022 yilgacha bo'lgan davr uchun | |
|---|---|---|
| | Bir kishilik (SGL) | Ikki kishilik (DBL, TWN) |
| **Standart xona** | 190 370,37 so'm | 380 740.74 so'm |
| **Deluks** | 350 000 so'm | 500 000 so'm |
| **Lyuks** | 750 000 so'm | 900 000 so'm |

**Eslatma:**
1.1. Yashash narxiga nonushta (bufet) kiradi. Nonushta vaqti - 07.00 dan 10.00 gacha.
1.2. Narxlar tijorat siri bo'lib, "Pudratchi" ning ruxsatisiz ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi mumkin emas.
1.3. Konferents -zalning 1 kunlik ijarasi 1 000 000 (bir million) so'm.
1.4. 1 kishi uchun kofe -breyk narxi 45000 (qirq besh ming) so'm.
1.5. 1 kishi uchun tushlik / kechki ovqat narxi 90 000 (to'qson ming) so'm.
1.6. Barcha o'zgarishlar,taklif qilingan o'zgartirishdan kamida 10 kun oldin yozma ravishda berilgan bildirishnoma asosidaginaamalga oshirilishi lozim.

**"Ijrochi" (PUDRATCHI)**

Manzil: Farg'ona, 150100,
Yangi Turon ko`chasi 15-uy
tel.: + 99878-2297555, 2297790
X/r 20214000900706808001
ATB "Asakabank" Farg'ona
MFO 00539
INN 304532102
OKONX 91620, OKED 55100

Gen. Direktor
"MATXALIKOV ABDUNABI FAYZI" MCHJ

A.A. Matxalikov ____________

**"Buyurtmachi" (Mijoz)**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYATI BOSH BOSHQARMASI
150100,Farg'ona shahar,Alisher Navoiy ko'chasi 17-uy
Sh.x/r 100211860304017083100245006
INN:207249747 OKONX: 97120 Tel:(73)244-14-54
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi
x/r:23402000300100001010
Markaziy bank,Toshkent sh.XKKM
MFO:00014 INN:201 122 919

3749566

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"GRAND FERGANA HOTEL" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"GRAND FERGANA HOTEL" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

03.12.2020 921411 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 307963854

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Farg`ona viloyati, Farg`ona shahri, YANGI TURON KO'CHASI, 15-UY,

Guvohnoma: Farg`ona viloyati, Farg`ona shahri, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH
DAVLAT QO'MITASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SERTIFIKATLASHTIRISH
MILLIY TIZIMI

"TURIZM XIZMATLARINI SERTIFIKATLASHTIRISH MARKAZI" DUK

# MUVOFIQLIK SERTIFIKATI

Sertifikatlashtirish milliy tizimining
Davlat reestrida ro'yxatdan o'tkazish

№ UZ.SMT.02.361.012878
Ro'yxatga olish sanasi: 2019 yil 3 iyun
2022 yil 3 iyungacha amal qiladi

Farg'ona vil., Farg'ona sh., Yangi Turon ko'ch., 15-uy manzilida joylashgan

**"GRAND FERGANA" mehmonxona**

"MATXALIKOV ABDUNABI FAYZI" MChJ (Farg'ona vil., Farg'ona sh., Yangi Turon ko'ch., 15-uy) tomonidan ko'rsatilayotgan mehmonxona xizmatlarining **O'z DSt 3220:2017** da belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Joylashtirish vositasiga - toifasi berildi.

Sertifikat: **64 ta xona 124 ta joyga taalluqli.**

Qo'shimcha ma'lumotlar:

Sertifikat: **2019 yil 30 maydagi 536 - sonli qaror asosida berilgan.**

**Markaz direktori** **N.N. Islomov**

M.O'.

№ 001873

# GRAND FERGANA HOTEL

| | ФИО ГОСТЯ | ГРАЖДАНСТВО | ДАТА CHECK_IN | ДАТА CHECK_OUT | СУТКИ ПРОЖИВАНИЯ | ЦЕНА НОМЕРА | ИТОГО СУММА |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | YULDASHEV UMIDJON | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 2 | ERMALOV MAKSIM | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 3 | TEMIROV SHOXRUX | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 4 | XUSHVAQTOV JAVOXIR | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 5 | ERGASHEV ISMOYILJON | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 6 | AXTAMOV SANJAR | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 7 | EGAMQULOV BUNYOD | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 8 | QOBULJONOV MUXAMMADQOBULJON | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 9 | RASULOV MUXAMMADALI | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 10 | RAXIMOV BEXZOD | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 11 | MAMADALIYEV ABDULBOSIT | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 12 | ISAMOV XABIBULLOXON | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 13 | YAXYOPOV SULAYMON | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 14 | KOSIMOV BUNYODBEK | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 15 | SOBIROV ISLOMJON | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 16 | SOBIROV AXRORJON | UZBEKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 17 | ZHYARBEK UULU BAIASTAN XXX | KYRGYZSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 18 | ERGESH UULU MEDETBEK XXX | KYRGYZSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 19 | KANYBEK ULUU ONIBEK XXX | KYRGYZSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 20 | ABYLKASIMOV NOORUZBEK XXX | KYRGYZSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 21 | GUBASHEVA ASEL XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 22 | OMIRZAK NURJAN XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 23 | SYRLYBAEV ERMEK XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 24 | NETALIN AYBAT XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 25 | BOKEN YARIKZHAN XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 26 | AKIMOV DAMIR XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 27 | KADIRKHANOV NODIRKHAN XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 28 | OKUNEV SERGEY XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 29 | MENZHULIN SERGEY XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 30 | IMANGALIYEV MARAT XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 31 | VORIVODIN VITALIY XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 32 | NURMAKHAMETOV NURLIBEK XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 33 | SHVARTSKOPF ALEXANDR XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 34 | REZANOV SERGEY XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 35 | PROKOFYEV VLADIMIR XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 36 | YECHSHENKO DENIS XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 37 | KUNCHENKO VLADISLAV XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 38 | GREBENNIKOV BORIS XXX | FRANCE | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 39 | KUZNETSOV SERGEY XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 40 | SULEYMANOV ALEXANDR XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 41 | TOPKIN GRIGORIY XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 42 | KENZHEBAYEV RUSLAN XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 43 | GORBATKOV DMITRIY XXX | KAZAKHSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 44 | LATIPOV MUKHIB XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 45 | GHANIYEV SARHADJON XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 46 | ISLOMBEKOV AFRAZ XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 47 | ILNAZAROV MUIZ XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 48 | KAMBAROV XOFIZ XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 49 | SULTONMAMADOV MUQIM XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 50 | SHUKUROV FARIS XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 51 | MIRMAMADOV DAVLAT XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 52 | GHULOMALIYEV YODGORJON XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 53 | GAVHAROV HHALIMSHO XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 54 | MAVLONAZAROV BEKNAZAR XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 55 | SIDSANSHOEV SAIDSANSHO XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 56 | KUKANBEKOV KUKANBEK XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 57 | ODINAMAMADOV JAHONGIR XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 58 | MURODOV DILSHOD XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 59 | NAZARAMONOV SHODI XXX | TAJIKISTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,33 |
| 60 | MUSAEV ZHAMALIDDIN XXX | KYRGYZSTAN | 15.08.2021 | 24.08.2021 | 9,00 | 190 370,37 | 1 713 333,53 |
| | | | | | | | 102 800 000,00 |

XORIJIY SARMOYA ISHTIROKIDAGI
MATXALIKOV ABDUNABI FAYZI
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

# XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHI
# Q A R O R I

150100, Farg‘ona sh., Alisher Navoiy k., 15-uy, tel: (73) 244-07-35, e-mail: info@ferghana.uz, www.ferghana.uz

2022 - yil 26 - yanvar VI-40-2-11-0-K/22 Farg‘ona viloyati hokimligi

**Фарғона вилояти маҳаллий бюджетининг 2022 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағларидан фойдаланиш тўғрисида**

Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг 27 ва 126-моддаларига ҳамда Ўзбекистон Республикасининг “2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ, Халқ депутатлари Кенгашларига маҳаллий бюджетларни бошқаришда эркинликлар берилиб, солиқлар ва йиғимлар бўйича ставкаларини белгилаш, маҳаллий бюджет харажатлари ижроси бўйича ҳудудий бюджет маблағлари тақсимловчиларнинг Кенгаш олдидаги ҳисобдорлигини ҳамда маҳаллий бюджетларнинг қўшимча манбаларидан фойдаланиш йўналишларини белгилаш бўйича ваколатлари кенгайтирилди.

Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг 126-моддасига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 12 мартдаги 249-IV-сонли карорига мувофиқ вилоят маҳаллий бюджетининг 2022 йил бошига шаклланган эркин қолдик маблағларидан фойдаланиш бўйича халқ депутатлари вилоят Кенгаши

**ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Фарғона вилоятининг вилоят маҳаллий бюджетининг 2022 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағлари 276,5 млрд.сўмни ташкил этганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг 126-моддасида ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2021 йил 12 мартдаги

249-IV-сонли қарорининг 5-бандида маҳаллий бюджет қўшимча манбаларидан фойдаланишда қонунчиликка қатъий риоя қилган ҳолда, маблағларнинг фақатгина (фавқулодда ҳолатлар бундан мустасно) халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари қарорлари асосида йўналтирилишини таъминлаш кўрсатиб ўтилганлиги назарда тутилсин.

3. Вилоят маҳаллий бюджетининг 2022 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағлари ҳисобидан 81 300,0 (саксон бир миллиард уч юз) миллион сўм маблағ 1-иловага мувофиқ ажратилсин.

Бунда, мазкур харажатларни йўналтиришда лойиҳа-смета ҳужжатлари ўзгариши ва кўзда тутилган тадбирларни молиялаштиришда ноаниқликлар юзага келган ҳолларда маблағлар миқдори ва йўналишларига вилоят ҳокимининг Фармойишлари билан ўзгартиришлар киритиш ҳамда фавқулодда ва тезкор ҳолатларда маблағларни вилоят ҳокимининг қарор (Фармойиш)лари асосида йўналтириш назарда тутилсин.

4. Халқ депутатлари Фарғона вилояти кенгашининг 2020 йил 12 декабрдаги VI-XXIII/119-сонли қарорига асосан Фарғона вилояти ҳокимининг 2021 йил 9 ноябрдаги 247-11-0-F/21-сонли Фармойиши билан мактабгача таълим муассасаларининг бўш турган майдонларига енгил типдаги боғчалар (контенерли) ташкил этиш учун кўзда тутилган лойиҳа қийматининг эллик фоиз маблағларини молиялаштириш учун 7 270,0 млн.сўм маблағ шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларига ўтказиб берилганлиги инобатга олинсин.

Бунда, мазкур ҳудудларда енгил типдаги боғчалар (контенерли) ташкил этиш ишларини тўлиқ якунлаш мақсадида маблағларни қолган эллик фоизи, яъни 7 270,0 (етти миллиард икки юз етмиш) миллион сўм маблағ вилоят маҳаллий бюджетининг 2022 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағлари ҳисобидан 2-иловага мувофиқ тегишли шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларига ўтказиб берилсин.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 3 декабрдаги “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ҳоким ёрдамчилари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-31-сонли қарори ижросини таъминлаш мақсадида янги ташкил этилган ҳоким ёрдамчилари фаолияти учун зарур бўлган замонавий ахборот воситалари, жумладан

компьютер тўплами билан таъминлаш харажатлари учун 8 559,0 (саккиз миллиард беш юз эллик тўққиз) миллион сўм маблағ вилоят маҳаллий бюджетининг 2022 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағлари ҳисобидан 3-иловага мувофиқ тегишли шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларига ўтказиб берилсин.

6. Вилоят молия бош бошқармаси (З.Рўзалиев) мазкур қарорга мувофиқ маҳаллий бюджетларга ўтказиб берилиши кўзда тутилган маблағларни тегишли шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларига ўтказиб бериш, вилоят бюджетидан маблағ олувчи ташкилотларнинг харажатлар сметасини белгиланган тартибда рўйхатга олиш, вилоят ғазначилик бошқармаси (А.Ғойипов)га тўловларни ўрнатилган тартибда ва ўз вақтида амалга оширилишини таъминлаш вазифалари юклатилсин.

7. Фарғона вилоят ҳокимининг биринчи ўринбосари А.Уринбоев вилоят ҳокимлиги молия бош бошқармаси (З.Рўзалиев) билан биргаликда вилоят маҳаллий бюджетининг қўшимча манбалари, жумладан даромадлар режасини ошириб бажарилган қисмидан фойдаланиш йўналишлари бўйича ҳар чорак якуни билан Халқ депутатлари вилоят Кенгашига ахборот киритилишини таъминласин.

8. Маҳаллий бюджетнинг қўшимча манбалари ҳисобидан маблағ олувчи ташкилотлар, жумладан тегишли буюртмачилар маҳаллий бюджетнинг қўшимча манбалари ҳисобидан харид қилинган товарлар ва хизматлар, қуриш, реконструкция ва таъмирлаш ишлари олиб борилаётган объектлар рўйхати, шунингдек қурилиш-таъмирлаш ишларининг молиялаштирилиши тўғрисидаги маълумотларни вилоят ҳокимлигининг расмий веб-сайтига жойлаштириб бориш учун вилоят ҳокимлигига киритиб борсинлар.

9. Давлат молиявий назорати бошқармаси (С.Жўраев)га мазкур қарор асосида ажратиладиган маблағлардан мақсадли фойдаланилишини тизимли назорат қилиш ва ҳар чорак якуни билан Халқ депутатлари вилоят Кенгаши ҳамда вилоят ҳокимлигига ахборот киритилишини таъминлаш вазифаси юклатилсин.

10. Мазкур Кенгаш қарори бажарилишини назорат қилиш вилоят ҳокимининг биринчи ўринбосари А.Уринбоев ҳамда халқ депутатлари вилоят Кенгаши котибияти мудири Н.Элчиевалар зиммасига юклансин.

**Вилоят ҳокими** **Х.Бозаров**

Халқ депутатлари Фарғона вилояти
кенгашининг 2022 йил "28" январдаги
VI-40-2-11-0-К/22-сонли қарорига 1 илова

## Фарғона вилояти маҳаллий бюджетининг 2022 йил бошига шаклланган эркин қолдиқ маблағлари ҳисобидан ажратиладиган маблағлар

млн сўм

| № | Ажратиладиган маблағлар мақсади ва йўналишлари | Маблағ ажратиладиган ташкилот номи | маблағ миқдори |
|---|---|---|---|
| 74 | Вилоятда 2021 йил давомида маданий ва спорт тадбирларини ўтказишдан юзага келган қарздорликлар, жумладан тадбирлар давомида кўрсатилган меҳмонхона хизмати харажатларидан мавжуд қарздорликларни қоплаш харажатлари | Вилоят Туризм ва спорт бошқармаси | 247,0 |